



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



OSIYO
TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

QASHQADARYO VOHASINING MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI RAVNAQIGA QO'SHGAN HISSASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**QASHQADARYO VOHASINING
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI
RAVNAQIGA QO'SHGAN HISSASI**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2025-yil 11 – 12-aprel

Qarshi – 2025



1920 – 1924-YILLARDA QASHQADARYO (G'UZOR TUMANI MISOLIDA)

Mualliflar: Raxmonov Kamol Djamolovich¹

Abdullayev Behruzбек Anvarovich²

Affilyatsiya: Buxoro davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent¹ (O'zbekiston)

Buxoro innovatsiyalar universiteti, magistrant² (O'zbekiston)

ANNOTATSIYA

1920–1924-yillarda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, kollektivlashtirish va yer tizimi inqilobi, shuningdek, mahalliy aholi o'rtasida yuzaga kelgan qarshiliklar o'z aksini topdi. G'uzor tumanidagi tuman kengashlari va kooperativlar faoliyatiga oid ma'lumotlar, shu davrning siyosiy va ijtimoiy muhitini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu davrda G'uzor tumanida yuz bergan o'zgarishlar, uning aholisining turmush tarzini, mehnat resurslarini va ijtimoiy hayotini sezilarli darajada ta'sir qilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, G'uzor tumani, Sovet islohotlari, Kollektivlashtirish, Ijtimoiy o'zgarishlar.

1920 – 1924 yillarda mavjud bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hukumati davrida G'uzor viloyat va tuman kabi ma'muriy birliklarda manbalarda qayd etiladi. BXSR yillarida o'zbek tilida, arab imlosida chop etilgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida G'uzor tumani haqida boy materiallar uchraydi.

Mahalliy matbuotda G'uzor hudud bilan bog'liq maqola va xabarlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

1. Aholini savodini (xat – savodli) chiqarish va madaniy hayotga tegishli bo'lgan ma'lumotlar.

2. G'uzor tumanidagi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarga qaratilgan maqola va qisqa xabarlar.

3. Hayotda, kundalik maishiy turmushda bo'lgan yangi o'zgarishlarga qaratilgan xabarlar.

Buxoro axborining 127, 178, 211-sonlarida [1] “Ozod Buxoro” ning 14, 112-sonlarida [2] G'uzorda savodsizlikni tugatish, xat – savod o'rgatish kurslarini tashkil etish holati teatr truppasini tuzish, kutubxona ochish kabi masalalar ochib berilgan. Yuqorida qayd qilingan gazeta manbalarida G'uzorda bitta savodsizlikni tugatish maktabi borligi, unda 75 o'quvchi, ikkita muallim va bitta mudir borligi, muallimlar maoshi 60 so'm ekanligi, tuman kutubxonasida 1500 jild o'zbek, tojik, tatar, turk, arab, rus tillaridagi kitoblar mavjudligi, o'quvchilar sonini 150 taga yetkazish rejalari to'g'risidagi raqamlar keltiriladi. Shuningdek, G'uzorda maorif ishlaridagi nuqson va salbiy jihatlar ham ko'rsatilib, maorif vakili Qori Ahmadjon va mudir Mengli afandining suiste'molliklari, axloqi - ma'naviy tarbiyadagi xatoliklar tanqid qilingan. Gazetalarda G'uzordagi ijtimoiy – iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan xabar va maqolalar o'sha davrdagi moddiy ahvol, soliq siyosatidan darak beradi.

“Ozod Buxoro” tahririyati tomonidan “Ozod Buxoro” ning 207-sonida “Tagini surishtirib qichqirish kerak” (oyliklarni o'z vaqtida berilmaganligi haqida)” [3] nomli yirik maqolada muallim, ishchi, dehqonlar davlat xazinasini va davlat kassasi tashkil etilganiga qaramay 4 – 5 oyda ish haqi

olmasliklari, G'uzorda barcha masalalar "Markaz" ga qaram qilib qo'yilganligi, oltin hisobi bilan hukumat 10 mln. oltin so'm oqcha chiqarsa, vaziyat o'nglanishi bayon qilingan.

Moddiy ahvolni yaxshilash uchun mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, dehqonchilik xo'jaligini zamonaviylashtirish, yangi texnika olib kelish, soliq idoralari suiste'molligiga chek qo'yish, mahalliy byudjetga ega bo'lish takliflari maqolada ilgari surilgan. Shuningdek, 1923-yilda soliq idorasi mudiri ma'lumoticha, G'uzorda soliqning 98 foizi to'planib, ushur solig'i miqdori – 17,551 so'm, zakot solig'i tushumi – 15762 so'mni tashkil etdi" [4]deb qayd etiladi "Ozod Buxoro" gazetasida.

G'uzor BXS Rdagi Karmana, Karki, Behbudiy (Qarshi) singari dehqonchilikning zamonaviy usullari tajribasini yoyadigan, yangi ekin turlarini ekib sinovdan o'tkazadigan tuman bo'lgan. Shuningdek, Moskva (Markaz)dan keltirilgan dehqonchilik mashinalari dastlab G'uzor ekinzorlarida ishlatilib, sinovdan o'tkazilgan [5].

BXSR hukumati maishiy xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalashtirish, havo floti qatnovini yo'lga qo'yish kabi tadbirlarni qo'lladi. Ushbu vazifalarni hal etishda xayriya fondlari, ko'ngilli jamiyatlar tuzildi. Gazeta xabarlaridan birida: "Buxoro havo floti do'stlari jamiyati" idorasi G'uzorga maxsus vakil tayin qilib, jamiyatning sho'basini ochishga kirishdi" – deb yozilgan[6].

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish joizki, 1920 – 1924-yillarda Qashqadaryo hududlari haqida manbaviy tafsilotlar BXSR rasmiy matbuot organi hisoblangan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarining ko'plab sonlarida to'liq va batafsil yoritilgan. Mazkur matnlar eski o'zbek yozuvidan joriy alifboga tabdil etilib, ilk bora ilmiy muomalaga kiritilayotganligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, manbaviy ahamiyatiga ko'ra juda dolzarb ekanligini inobatga olib, gazeta sahifalaridagi bir maqola matnini o'z xolicha va aynan keltirishini muhim deb topdik. Manbadan aynan:

Ozod Buxoro, 27-son, 1923 yil 20 dekabr.

Olimjon Oqchurin. Yo'lda ko'rganlarim.

Men MIQning qaroriga muvofiq qurultoy qarorlari ijrosi bo'yicha yo'lga chiqdim. Oliy Inqilobiy hukm mahkamasi tarafidan bosmachilarning mashhur Boysun va Kofirun tashkilotlarining ishlarini tekshirmak uchun ham Boysunga borib keldim. Ayni vaqtda mahalliy sho'ro idoralarning qurultoy qarorlarini bajarish ishlarini ko'rmak, xalq bilan hukumatni bir-birisiga yaqinlashtirmak mahalliy idoralarni tegishincha tuzib ularga ish yo'llarini ko'rgazmak va boshqa shunday ko'p maqsad va amallar bilan MIQning raisi o'rtoq Porso Xo'ja hamda yonida sodiq Mahmud bo'lg'oni holda Sharqiy Buxoro muxtor hay'ati, Sharqiy Buxoroga qarab yo'lga chiqqon edilar.

G'uzorga kelib yetgandan keyin, o'rtoq Porso Xo'ja Shahrisabzga, man bo'lsam Sharqiy Buxoro hay'ati bilan Sharqiy Buxoroga qarab jo'nadik.

Manim ko'rganim, G'uzor va Boysun bo'lib, u viloyatlardagi mahalliy sho'ro idoralarining va xalqning ahvoli bilan tanishmakdur. Faqat bundagi ahvol va vaziyatlar bilan boshqalarni ham tanishtirmaklik zarari bo'lmasdir deb bilaman.

Behbudiyda mahalliy hokimiyatning "faoliyati"

Biz Behbudiyda to'xtamasdan G'uzor safarimizda davom qilsak ham, stansiyadan avtomobilga o'ltirib ketganda stansiya tegrasida bo'lg'on ba'zi bir ayanchlik hollarni ko'rib Behbudiy hokimiyatining davlat tuzilishi yo'lida qilg'on favqulodda "faoliyati" bilan tanishmakka muvaffaq bo'ldik.

Stansiyada mashhur ta'mirot sho'basining minglarcha taxtalari hamda o'zining qisqa va fojealik tarixi bilan undan ham mashhurroq bo'lg'on "dehqonlarga yordam" komissiyasining 600 pud chigiti va ma'lum bo'lg'on bir muassasaning 1200 qop har kim tarafidan olinib, qolg'on qismlari tabiatning rahmsiz yomg'ir va qorlari ostida churuq yotqon edi. Hatto ushbu paxtalarning noma'lum odamlar tarafidan tashilganini va bir hannotning bu hukumat

paxtalaridan o'ziga ikki uydan bir hovli hamda do'kon vujudga keltirganini o'z ko'zlarimiz bilan ko'rdik.

Ijroqo'm raisini chaqirib ishning haqiqatini surushtirdik. U butun aybni marhum ta'mirot va dehqonlarga yordam komissiyalariga yuklab o'zi sutdan ham oq bo'lishga tirishdi. Biz raisga bu mollar hukumatnikidir desak, ul ta'mirotnikidir dedi, bu ishlarni ijroqo'm qarashga tegishlidir desak, ul yo'q bunda ijroqo'mning dahli yo'qdir dedi.

Biz agar bu ishda ijroqo'mning dahli bo'lmasa boshqa ishlarda ham dahli va haqqi yo'qdur desak, ul og'zini ochib "ho" dedi. Nihoyat qancha gap ursak ham tushunmaganini ko'rganimizdan keyin ushbu ishda aybli do'kondor va bir necha odamlarni hukmga berdik. O'rtoq Sodiq Mahmud esa, dohiliya noziri bo'lmog'i sifati bilan ushbu narsalarning 24 soat ichida shaharga tashilib sarishta qilinishi to'g'risida qat'iy buyruq berdi. Endi shu ashyolar to'g'risida bir qadar choralar ko'rilgandan keyin ko'nglimiz tinchlanib yo'lg'a jo'nadik. Lekin 20 kun o'tib, yana Behbudiyga qaytib kelsak dohiliya noziri tarafidan berilgan buyruqning amalga qo'yilmog'ini, taxta, chigit va qoplarning hanuz ilgaricha eski holatda turg'onligini ko'rmak bilan Behbudiy mahalliy hokimiyatining nihoyat darajada faoliyatsizligini va ular orasida eski hukumat odamlarining borligi hamda ularning har vaqtda sho'rolar hukumati ishlariga qarshi bo'lib turishlari haqida hech shubha qolmadi.

Shuning uchun bunday ishlarga nihoya bermak maqsadi bilan Behbudiy ijroiya qo'mitasining butun hay'atini hukmga berib, jiddiy ravishda yangi ijroqo'm tayin qilish kerakligini ko'rsatmak bilan barobar ushbu ashyolarni hukumat muhofazasiga olish to'g'risida choralar ko'rishni iqtisod sho'rosidan kutib qolamiz.

G'uzor yo'lida

Behbudiy bilan G'uzor o'rtasidagi harbiy jihatdan muhim bo'lg'on yo'l va ko'priklarning buzug'ligi, aroba va avtomobil o'ta olmaslik darajada yo'llarga ariqlardan suvlar oqayotganligi, Behbudiy mahalliy hokimiyatining kimligini yana bir marotaba isbot qildi.

Dohiliya nazoratining faoliyati ko'rsatadirkim, bu xususdagi MIQ va Nozirlar Sho'rosi Behbudiydagi dohiliya nazoratiga chora ko'rib qo'ymog'i kerak.

G'uzorga yaqinlasha boshlaganimizda uzoqdan unda kelgan bir to'da sallalik odamlar ko'rindi. Birinchi qarashda biz ularni bosmachilardan deb o'ylasak ham, keyin haligi odamlarning yo'lning ikki tarafida qator-qator bo'lib turishlari va yetib kelgandan keyin qo'llarini ko'kraklariga qo'yib boshlarini bellarigacha bukub hammasining bir og'izdan "Assalomu-aleykum" deb qichqirib yuborishlari, hanuz amir idorasining sarqitlari bor ekan deb ko'nglimizdan o'tdi. Uch yillik inqilob davrida ko'milib bitgan chirik odatlarni ko'rgandek bo'ldik. O'zimizni majburiy suratda eski mahkamada deb his qildik. Bularning bir-ikkitasidan boshqalari soliq idorasiga xizmat qilguvchi amaldor, oqsoqol, aminlar bo'lib, dohiliya nozirini istiqboli uchun chiqqan emishlar. Bunday istiqbollar to'g'risida boshqalar tilasa qanday o'ylamaylik, lekin manimcha, bu daqiqalar faqat g'ayri mehnatkash sinfigagina joiz bo'lib, kambag'al xalq o'rtasida bu odatlar yo'qdir. Albatta xalqni hukumatdan uzoqlashtirib turg'on bunday zolim va jabr-zulmdan kelib chiqqan eski odatlar bilan kurashmak kerakdir.

G'uzorda

G'uzorda bir kungina bo'lsak ham o'rtoq Porso Xo'janing kelmagi munosabati bilan yig'ilgan G'uzor mas'ul ishchilarining majlisida ishtirok etmagimiz va G'uzorning ba'zi bir hukumat ishchilari bilan G'uzor viloyatining ahvoli to'g'risida so'zlashmagimiz orqasida bundagi ishlar bilan bir daraja tanishmakka muvaffaq bo'ldik. G'uzor ijroqo'mi to'g'risida o'rtoq Porso Xo'ja fikrini bilmasdan faqat manim fikrimcha, G'uzor ijroqo'mi yaxshi ishlaydur. Ayniqsa, ijroqo'm raisi yosh bir odam bo'lsa ham g'ayratlik, tashabbuskor, G'uzor viloyati miqyosida ishlashga loyiq bir ishchidirkim, yaxshi tarbiya berilganidan, mazkur o'rtoqdan yaxshi bir sho'ro xodimi chiqmog'iga manim shubham qolmadi.

G'uzorda maorif va soliq masalasi

G'uzor mahalliy hukumatining hamda xalqining bosh va yuragini og'ritadigan ikki masala bo'lsa, ular soliq va maorif masalasidir. G'uzor xalqi eski idora zamonida amirning amakisi bo'lg'on G'uzor begi tarafidan boshqa xalqlarga nisbatan ham ortiq ezilganligidan va Sharqiy Buxoro bilan G'arbiy Buxoro o'rtasidagi katta yo'l ustida bo'lib, sho'ro xodimlari hamda askar bilan har vaqtda aralashmoqdan sho'rolar hukumatiga tez buysundi. Shuning uchun maorif masalasiga unchalik qarshi emasdurlar.

Maorif nazorati tarafidan maktablar ochilg'on holda maktablarning pulsiz qolmasligiga ishonaman. Lekin shunday muvaffaqiyatlik shartlarning bo'lishiga qaramasdan butun G'uzor viloyatida ikkitagina maktab bo'lib, bularning ham maorif nazorati tarafidan ta'min etilmasliklari mani juda hayron qoldirdi. Hatto Buxoro muallimlari to'rt-besh oydan buyon moyana olmay, Olloh rizoligi uchun o'qitib turadurlar ekan. Bu ma'lumotni G'uzorning ijroqo'mi va firqo'mi tasdiq qildilar. Agar ular bilan so'zlashgan bo'lsalar maorif nazorati bularni ma'suliyatga tortsin, agar bergan ma'lumotlari durust bo'lsa, ul vaqtda maorif nazorati xalq oldida bo'lg'on o'zining vazifasini bajarsun".

Xullas, XX asr birinchi choragida, ya'ni Buxoro amirligi va BXSR davrida G'uzor ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy – madaniy jarayonlaridagi markazlardan biri bo'lganligini birlamchi manbalar tasdiqlaydi. G'uzordagi demografik, etno – sosial jarayonlar tahlilini atroflicha o'rganish uchun manbalarga istiqbolda murojaat qilish ijobiy natijalar beradi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qarshi viloyat maorif ishlari // "Buxoro axbori", 127-son, 1923-yil 18-yanvar; Savodsizlikni bitirish yo'lida muhim harakatlar // "Buxoro axbori", 178-son, 1923-yil 27-iyun; Savodsizlik bitadi // "Buxoro axbori", 211-son, 1923-yil 7-oktyabr.
2. Viloyatlar uchun sahna asboblari // "Ozod Buxoro", 14-son, 1923-yil 21-noyabr; Buxoroda kutubxonalar // "Ozod Buxoro", 112-son, 1924-yil 9-iyul va hokazo.
3. Tagini surishtirib qichqirish kerak! // "Ozod Buxoro", 207-son, 1923-yil 9-sentyabr.
4. Soliq ishlari // "Ozod Buxoro", 73-son, 1923-yil 9-aprel; Noyabr oyida kirgan soliqlar // "Ozod Buxoro", 239-son, 1923-yil 19-dekabr.
5. Ziroat nazoratining navbatdagi ishlari (nazorat hay'ati a'zosi o'rtoq Abdulqodir bilan musohaba) // "Ozod Buxoro", 76-son, 1924-yil 13-aprel.
6. BXSHJda // "Ozod Buxoro", 104-son, 1924-yil 17-iyun.

35.	<i>Orziyev M.Z., Kucharov J.K., Muhammadiyeva A.A.</i>	<i>Shahrisabz va uning atroflarini sug'orilish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)</i>	<i>163</i>
36.	<i>Mamadiyev B.B.</i>	<i>Shahrisabzning tarixiy bozorlari va savdo – sotiq munosabatlari</i>	<i>171</i>
37.	<i>Xo'jayorov A.O.</i>	<i>Alloma Abu Hafs Nasafiyning fiqhiy ilmlarga oid asarlari</i>	<i>177</i>
38.	<i>Шарифова Г.Х.</i>	<i>Муайяди Насафи – персидский и таджикский поэт касыд</i>	<i>182</i>
39.	<i>Jo'rayev A.O.</i>	<i>G'uzor bekligining ma'muriy – hududiy tuzilishi va uning etnik tarkibi</i>	<i>187</i>
40.	<i>Жумаева Ш.С.</i>	<i>Научно – философское наследие Азизиддина Насафи</i>	<i>192</i>
41.	<i>Usmonova L.X.</i>	<i>G'uzor tuman aholisining etnik tarixi va etnoslarning joylashuvi</i>	<i>196</i>
42.	<i>Iskandarova G.S.</i>	<i>Oqsaroy – Amir Temur saltanatining buyuk timsoli</i>	<i>204</i>
43.	<i>Nasriddinov A.</i>	<i>Qarshi shahri sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida</i>	<i>213</i>
4-SHO'BA. SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI			
44.	<i>Abdullayev O'.Sh.</i>	<i>Qashqadaryo vohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishining yo'lga qo'yilishi: muammolar va yechimlar (1927 – 1970-yillar)</i>	<i>216</i>
45.	<i>Mo'minova G.E.</i>	<i>Qashqadaryo vohasi tarixi mavzusi tarixshunosligidan (mustaqillik yillari misolida)</i>	<i>221</i>
46.	<i>Raxmonov K.D., Abdullayev B.A.</i>	<i>1920 – 1924-yillarda Qashqadaryo (G'uzor tumani misolida)</i>	<i>227</i>
47.	<i>Asadova R.B., Sherozova S.Sh.</i>	<i>Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalarida qashqadaryo va surxondaryo viloyatlarning tutgan o'rni: tarixiy tahlil va natijalar</i>	<i>231</i>
48.	<i>Samadova N.M.</i>	<i>Qashqadaryo viloyatidagi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati</i>	<i>234</i>
49.	<i>Ernazarov A.X.</i>	<i>Qashqadaryo vohasida irrigatsiya ishlari bilan bog'liq muammolarning hal etilishiga doir ba'zi mulohazalar</i>	<i>237</i>
50.	<i>Mamatqulov B.Sh.</i>	<i>Qashqadaryo viloyatida XX asrning 20 – 40- yillarda sanoat ishchilari tarkibini shakllantirish va kadrlar tayyorlash jarayonidagi muammolar</i>	<i>242</i>
51.	<i>Jabbarova I.X.</i>	<i>Qashqadaryo irrigatsiya qurilishi tarixida “Eskianhorkanalstroy” tashkilotining ahamiyati</i>	<i>247</i>
52.	<i>Avliyaqulova D.</i>	<i>Qatag'onlik siyosatining janubiy viloyatlar ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri va uning oqibatlari</i>	<i>250</i>